

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SADRI ZIYONING HAYOTI VA MA'NAVIY MEROSINING FALSAFIY MOHIYATI

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: afuzaabdulaziz@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0000-0002-9890-0335>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro ijtimoiy-madaniy muhitida faoliyat yuritgan davlat arbobi, ma'rifatparvar va ziyoli Sadri Ziyoning hayoti, dunyoqarashi hamda ma'naviy merosining falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sadri Ziyo merosi faqat uning shaxsiy faoliyati solnomasi sifatida emas, balki bilim, ma'rifat, axloq, adolat, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va milliy o'zlik masalalarini qamrab oluvchi yaxlit ma'naviy-falsafiy hodisa sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Sadri Ziyo, ma'naviy meros, falsafiy tafakkur, ma'rifatparvarlik, axloq, qadriyatlar, inson kamoloti, milliy o'zlik, tarixiy xotira, Buxoro, jadidchilik, ma'naviyat.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ЖИЗНИ И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ САДРИ ЗИЁ

Тагоева Дилнавоз Нарзикуловна

Бухарский государственный педагогический институт, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются жизнь, мировоззрение и философская сущность духовного наследия Садри Зиё — государственного деятеля, просветителя и интеллектуала, активно участвовавшего в общественно-культурной жизни Бухары в конце XIX – начале XX века. В исследовании наследие Садри Зиё рассматривается не только как хроника его личной деятельности, но и как целостный духовно-философский феномен, охватывающий вопросы знания, просвещения, нравственности, справедливости, совершенствования человека, общественного прогресса и национальной идентичности.

Ключевые слова: Садри Зиё, духовное наследие, философская мысль, просветительство, нравственность, ценности, совершенствование человека, национальная идентичность, историческая память, Бухара, джадидизм, духовность.

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF SADRI ZIYO'S LIFE AND SPIRITUAL LEGACY

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

Bukhara State Pedagogical Institute, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the life, worldview, and philosophical essence of the spiritual legacy of Sadri Ziyo, a statesman, enlightener, and intellectual who was active in the socio-cultural environment of Bukhara in the late nineteenth and early twentieth centuries. The study interprets Sadri Ziyo's legacy not merely as a chronicle of his personal activities, but as a holistic spiritual and philosophical phenomenon encompassing issues of knowledge, enlightenment, ethics, justice, human self-actualization, social progress, and national identity.

Keywords: Sadri Ziyo, spiritual heritage, philosophical thought, enlightenment, ethics, values, human perfection, national identity, historical memory, Bukhara, Jadidism, spirituality.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro amirligi hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar milliy tafakkur tarixida alohida o'rin tutadi. Ushbu davrda an'anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan yangicha fikrlash, diniy-ma'rifiy qadriyatlar bilan zamonaviy ilm-fan, mavjud siyosiy tartiblar bilan ijtimoiy taraqqiyot ehtiyoji o'rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda shakllangan ziyolilar faoliyati o'zbek falsafiy tafakkuri tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Sadri Ziyo ana shu tarixiy-madaniy muhitning faol vakillaridan biri sifatida nafaqat davlat va jamoat faoliyati, balki ilmiy, adabiy-tarixiy hamda ma'rifiy qarashlari bilan ham e'tiborga loyiqdir. Uning merosi birgina tarixiy-biografik faktlar yig'indisidan iborat emas. Unda inson, jamiyat, ilm, axloq, ma'rifat, davlat boshqaruvi, tarixiy xotira va milliy o'zlik kabi fundamental masalalarga munosabat aks etadi.

Bugungi kunda ta'lim, fan va maorif, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda olib borilayotgan ko'plab o'zgarishlar, ta'limni rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kun jamiyati uchun muhim bo'lgan milliy-diniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ajdodlarimizning bebaho merosini xolisona o'rganishga imkon yaratmoqda. Darhaqiqat, "azaldan turli savdo yo'llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan boqiy Buxoro, uning ko'pni ko'rgan, ilm-ma'rifat, din-u diyonat, bunyodkorlik borasida nom qozongan xalqi har qanday hurmat va e'tiborga munosibdir"

[1:145].

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, Sadri Ziyo merosining falsafiy jihatdan yetarlicha tizimli tadqiq etilmaganligi bilan belgilanadi. Tarixiy shaxslar faoliyatini faqat siyosiy yoki biografik nuqtayi nazardan o'rganish ularning ma'naviy-falsafiy qarashlarini to'liq ochib bermaydi. Shu sababli Sadri Ziyoning ma'naviy merosini falsafa tarixi metodologiyasi asosida tadqiq etish uning qarashlaridagi ontologik, gnoseologik, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, bugungi kunda milliy ma'naviy merosni qayta anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va yosh avlodga ilm-ma'rifatga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan Sadri Ziyo merosida mujassam bo'lgan ma'rifat, axloq, ilm va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari zamonaviy falsafiy tafakkur bilan qiyosiy tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Sadri Ziyoning hayoti va ma'naviy merosini tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning qarashlaridagi asosiy falsafiy g'oyalarni aniqlash hamda ularning o'zbek ma'naviy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotidagi o'rnini naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Sadri Ziyo dunyoqarashining shakllanishini u yashagan tarixiy muhitdan ajratib o'rganish mumkin emas. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro hududida an'anaviy diniy-ta'lim tizimi, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlar uzoq tarixiy tajribaga tayangan holda faoliyat ko'rsatgan. Shu bilan birga, mintaqada yangi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar ham tobora kuchayib bordi.

Bu davrning muhim xususiyati shundan iborat ediki, jamiyatning turli qatlamlarida mavjud ijtimoiy muammolarga nisbatan yangicha munosabat shakllana boshladi. Ilmning jamiyat taraqqiyotidagi roli, ta'lim mazmunini takomillashtirish, davlat boshqaruvida adolat va mas'uliyat, insonning bilim va axloq orqali kamol topishi kabi masalalar ziyolilar tafakkurida tobora muhim o'rin egalladi.

Sadri Ziyo faoliyatini aynan shu intellektual muhit doirasida ko'rish zarur. Uning dunyoqarashida an'anaviy Sharq ma'naviyati bilan davrning yangilanish ehtiyoji o'zaro kesishganini ko'rish mumkin. Bu holat uning merosini falsafa tarixi nuqtayi nazaridan o'rganish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sadri Ziyo Buxoro tarixidagi murakkab siyosiy va madaniy jarayonlar davrida yashab, turli ijtimoiy-ma'muriy faoliyatlarda qatnashgan ziyolilardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning hayoti davlat boshqaruvi, ilmiy-adabiy faoliyat va ma'rifiy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Ro'znoma" ("Kundalik") — Sadri Ziyoning shaxsiy kundaligi bo'lib, Buxoro amirligidagi voqealar, o'zining hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. "Tarixi Amironi Mang'it" — Mang'itlar sulolasi tarixiga oid asar, "Tazkori ash'or" — Buxoro shoirlari haqida tazkira (biografik ma'lumotlar to'plami), "Navodir ul-vaqoe" — turli voqealar va hikoyalar to'plami. Sadri Ziyo haqida yozilgan asarlar va tadqiqotlar qatorida Sadridin Ayniyning asarlari alohida o'rin tutadi. Ayniy Sadri Ziyoni yaqindan bilgan va u haqida "Esdaliklar" ("Xotiralar") asarida hamda boshqa ishlarida ma'lumot bergan. "Buxoro yodgorliklari" yoki jadidchilik harakatiga oid tadqiqotlarda ham Sadri Ziyoning o'rnini yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda analiz, sintez, sinergetik, germinativ, aksiologik, vorisilik, tarixiylik, qiyosiy va metodologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Sadri Ziyo hozirgi Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi Ziyuddin hududida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Ziyo taxallusi qisqartirilib, tug'ilgan maskani Ziyuddin nomi bilan bog'liq bo'lib, otasi Ziyuddin nomini bergan. Ramazon oyining juma kunida tug'ilganligi uchun otasi unga Muhammad Sharif laqabini qo'ygan [2:5].

Sadri Ziyoning tarjimai holi va ijodiy faoliyatini ilmiy jihatdan to'g'ri davrlashtirishning o'zi metodologik muammo sifatida ko'rinadi. Tadqiqotchilar bu masalada turlicha yondashuvlarni qo'llaganlar. Ammo ko'pchilik olimlar tomonidan umumiy qabul qilingan davrlashtirishga ko'ra, uning hayoti va faoliyati quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

1. **Shakllanish davri (1865–1890-yillar):** Buxoro madrasalarida ta'lim olish, klassik islom va Sharq falsafasini o'rganish bosqichi;
2. **Yetuklik va ijodiy faoliyat davri (1890–1917-yillar):** tarixiy, adabiy va falsafiy asarlar yozilishi, ijtimoiy faoliyat;
3. **So'nggi davr (1917–1932-yillar):** Sovet davri sharoitida ijodiy merosni saqlash va ijtimoiy o'zgarishlarga munosabat bildirish davri.

Sadri Ziyoning hayoti haqidagi asosiy ma'lumotlar uning o'z qo'li bilan yozgan "Ruznoma Sadri Ziyo" ("Sadri Ziyo kundaligi") asarida aks etgan bo'lib, ushbu manba bir vaqtning o'zida ham tarixiy, ham falsafiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. O'z davrining ko'zgusi sifatida bu manba nafaqat shaxsning hayotini, balki XIX–XX asr boshlaridagi O'rta Osiyoning ijtimoiy-madaniy muhitini ham qayta tiklashga imkon beradi. Bu davr har tomonlama tahlikali, agressiv muhit bo'lib, chor tarafda amirga sodiq va sotqin insonlar, talon-tarojliklar odatiy holga aylangan, kambag'alning yashab qolishi qiyin, "ingichka uziladigan, yo'g'on cho'ziladigan" aholining ijtimoiy ahvoli, turish-turmushi o'ta og'ir edi. Ocharchilik bir tomondan qiynasa, bir tomondan chegara bilmaydigan soliqlar va majburiyatlar tub aholining tinkasini quritgan edi.

Sadri Ziyo Buxoroning qozi kaloni — qozi-ul-quzzot Domullo Abd al-Shukur sadrning farzandi bo'lib, otasining qozilik faoliyati davrida undan ko'p narsalarni o'rgangan. Shu sababli uning tajribasi boshqa tengdoshlariga nisbatan yuqori bo'lgan. Xalq dardini o'ylab, muammolarni xalq foydasiga yechganligi uchun xalq uni e'zozlab, Sharifjon Maxdum Sadri Ziyo, tarixiy manbalarda esa Mirzo Muhammad Sharif, Muhammad Sharif Mahdum, Qozi Sharifjon, Qozi Mirzo Muhammad Sharif sadr, Qozi Muhammad Sharif Sudur [3:4] kabi nomlar bilan tilga oladi.

Sadri Ziyo ma'naviy merosi va uning kutubxonasidagi qimmatli manbalar nafaqat yevropalik olimlar, MDH

davlatlari olimlari, balki yurtimiz tadqiqotchi olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Uning boy kutubxonasi va faoliyati, fihristi, qo'lyozma manbalari hamda ularning taqdiri o'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilib [4], ilmiy yangilik va natijalar Yevropa nashrlarida e'lon qilingan.

Sadri Ziyoning ma'naviy merosini nafaqat Yevropa olimlari, balki farzandi Muhammadjon Shakuriy (Shukurov) va avlodlari ham o'rgangan. Ular uning hayoti, faoliyati, ijodiy muhiti, kutubxonasi, go'zal amallari va asarlari haqida ko'plab ilmiy maqolalar chop etib, otasiga bag'ishlab asarlar yozganlar. Farzandlari tomonidan yozilgan ishlar Tojikistonda nashr qilingan [5].

Tarixiy shaxsning dunyoqarashini o'rganishda uning egallagan lavozimlari yoki bajargan xizmatlarini sanab o'tishning o'zi yetarli emas. Muhimi, ushbu faoliyat uning jamiyat, davlat, inson va ma'rifat haqidagi qarashlariga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlashdir.

Sadri Ziy o faoliyatida kuzatiladigan muhim jihatlardan biri — amaliy ijtimoiy tajriba bilan ziyolilik faoliyatining uyg'unlashuvidir. Davlat va jamiyat hayotidagi real jarayonlarni bevosita kuzatish uning tarixiy voqelikni faqat nazariy emas, balki amaliy tajriba asosida anglashga imkon bergan.

Shu nuqtayi nazardan, Sadri Ziyoning merosida tarixiy voqealarni qayd etish bilan bir qatorda, ulardan ma'naviy va axloqiy xulosa chiqarishga intilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sadri Ziy o dunyoqarashining shakllanishida bir necha ma'naviy-intellektual omillar muhim rol o'ynagan.

Birinchidan, Sharq musulmon falsafiy tafakkuri va islomiy axloq an'analari. Unda ilm olish, adolat, halollik, insoniylik, sabr, mas'uliyat va komillik kabi tushunchalar markaziy o'rin tutadi.

Ikkinchidan, Buxoroning ko'p asrlik ilmiy-adabiy muhiti. Buxoro qadimdan ilm, madaniyat va diniy-ma'rifiy tafakkurning muhim markazlaridan biri bo'lgan. Bunday muhitda shakllangan ziyolining tarix va jamiyat haqidagi qarashlari tabiiy ravishda boy ma'naviy an'alar bilan bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy o'zgarishlar. Jamiyat hayotidagi qarama-qarshiliklar ziyolilarni mavjud voqelikni qayta baholashga, taraqqiyot omillarini izlashga undadi.

Demak, Sadri Ziy o dunyoqarashini faqat bitta manbaga bog'lab tushuntirish ilmiy jihatdan biryoqlama bo'ladi. Uning tafakkurida an'anaviy ma'naviy meros, tarixiy tajriba va zamonaviylikka ehtiyoj o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladi.

Sadri Ziy o ma'naviy merosini tahlil qilishda ilm va ma'rifat masalasi alohida o'rin tutadi. Chunki jamiyatning taraqqiyoti va insonning kamoloti masalalarini ilmga munosabatsiz tasavvur qilish qiyin.

Falsafiy nuqtayi nazardan bilim insonning tashqi olamni anglash vositasigina emas, balki uning o'zligini anglash va mavjud ijtimoiy voqelikni o'zgartirish imkoniyatini beruvchi omil hamdir. Shu ma'noda ma'rifat insonning passiv kuzatuvchidan faol ijtimoiy subyektga aylanish jarayonini anglatadi.

Sadri Ziy o merosida ilmning qadrlanishi individual manfaatdan yuqoriroq ma'naviy mazmunga ega. Ilm jamiyat manfaatiga xizmat qilishi, insonni axloqiy jihatdan yuksaltirishi va tarixiy tajribani anglashga yordam berishi kerak. Bu yondashuvni quyidagi falsafiy formula orqali ifodalash mumkin:

ilm → anglash → ma'rifat → axloqiy kamolot → ijtimoiy mas'uliyat → taraqqiyot.

Bunda bilimning haqiqiy qadri uning miqdorida emas, inson va jamiyat hayotida qanday ma'naviy natija berishida namoyon bo'ladi.

Sadri Ziy o merosining yana bir muhim jihati inson masalasidir. Sharq falsafiy tafakkurida inson ko'pincha ma'naviy kamolotga intiluvchi mavjudot sifatida talqin qilinadi. Ushbu an'ana Sadri Ziy o qarashlarini tushunishda ham muhim metodologik asos bo'la oladi.

Insonning kamoloti faqat bilim olish bilan chegaralanmaydi. Bilim axloq bilan uyg'unlashmasa, u jamiyat uchun ijobiy natija bermasligi mumkin. Shuning uchun ma'naviy yetuklik ilm, axloq va mas'uliyatning birligidan kelib chiqadi.

Mazkur nuqtayi nazardan Sadri Ziy o merosidagi inson konsepsiyasini uch asosiy komponent orqali tushuntirish mumkin:

bilimlilik — voqelikni anglash;

axloqiylik — anglangan haqiqatga muvofiq yashash;

mas'uliyat — o'z faoliyatining jamiyat oldidagi oqibatlarini anglash.

Shu jihatdan insonning ma'naviy kamoloti individual jarayon bo'lish bilan birga, ijtimoiy mazmunga ham ega.

Adolat masalasi Sharq siyosiy-falsafiy tafakkurining eng qadimiy mavzularidan biridir. Davlat boshqaruvi bilan bog'liq tajribaga ega bo'lgan ziyolilar uchun adolat masalasi yanada amaliy ahamiyat kasb etgan. Sadri Ziy o merosini shu nuqtayi nazardan o'rganish uning shaxsiy axloq va ijtimoiy tartib o'rtasidagi aloqani qanday anglaganini aniqlash imkonini beradi.

Falsafiy jihatdan adolatni uch darajada ko'rish mumkin:

1. **shaxsiy adolat** — insonning o'z xatti-harakatlariga nisbatan halolligi;
2. **ijtimoiy adolat** — jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda haqqoniylik;
3. **siyosiy adolat** — hokimiyat va boshqaruvning xalq manfaatlariga mosligi.

Shu jihatdan ma'naviy merosning qimmatini faqat tarixiy ma'lumot berishida emas, balki axloqiy mezonlarni shakllantirish imkoniyatida ham namoyon bo'ladi.

Tarixiy xotira xalqning o'zligini anglashida muhim omildir. Jamiyat o'z tarixini bilmasdan turib, bugungi holatini to'liq anglay olmaydi. Shu sababli tarixni qayd etish, tarixiy voqealarni saqlash va kelajak avlodga yetkazish ma'naviy mas'uliyat hisoblanadi. Sadri Ziy o faoliyatining tarixiy jihatdan muhim tomoni ham shundaki, u o'z davri voqeliklarini qayd etish va tarixiy ma'lumotlarni saqlash jarayonida ishtirok etgan. Bunday faoliyat tarixchilik bilan cheklanib qolmaydi. Unda tarixiy xotiraning ma'naviy funksiyasi ham mavjud. Tarixiy xotira: **o'tmishni bilish → hozirgi holatni**

anglash → xatolardan xulosa chiqarish → kelajakni ongli qurish jarayonini ta'minlaydi.

Shu sababli Sadri Ziyo merosidagi tarixiy ma'lumotlarni falsafiy jihatdan tahlil qilish ularni oddiy xronologik ma'lumotlar sifatida emas, balki tarixiy ong shakllanishining manbasi sifatida ko'rishni talab qiladi.

Milliy o'zlik tushunchasi tarix, til, madaniyat, diniy-ma'rifiy qadriyatlar va umumiy tarixiy xotira bilan chambarchas bog'liq. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda milliy o'zlikni anglash masalasi ziyolilar tafakkurida tobora muhimlashgan.

Sadri Ziyo merosini shu kontekstda o'rganish uning tarixiy-madaniy merosni saqlash va anglashga qo'shgan hissasini ochib berish imkonini beradi.

Biroq bu yerda metodologik ehtiyotkorlik zarur. Sadri Ziyoni keyingi davr millatchilik yoki modern milliy davlat tushunchalari bilan to'liq tenglashtirish tarixiy anaxronizmga olib kelishi mumkin. Uning qarashlarini, avvalo, o'zi yashagan davrning siyosiy, diniy, madaniy va ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib baholash lozim. Bu tarixiy-falsafiy tadqiqot uchun muhim prinsipdir: tarixiy shaxsni bugungi tushunchalar bilan emas, avvalo, o'z davrining ma'naviy-intellektual mezonlari bilan tushuntirish.

Sadri Ziyo merosining zamonaviy ahamiyati uning qarashlarini bevosita bugungi siyosiy yoki ijtimoiy vaziyatga ko'chirishda emas, balki ulardagi universal ma'naviy tamoyillarni aniqlashda namoyon bo'ladi.

Bunday tamoyillar qatoriga:

- ilm va ma'rifatning inson hayotidagi ahamiyati;
- tarixiy xotirani saqlash;
- axloqiy mas'uliyat;
- jamiyat taraqqiyotida ziyolining o'rni;
- ma'naviy merosni asrash;
- insonning bilim va axloq orqali kamol topishi

kabi g'oyalarni kiritish mumkin.

Ayniqsa, zamonaviy axborot makonida tarixiy xotira va ishonchli manbaga tayanish masalasi muhimlashayotgan sharoitda tarixiy merosga tanqidiy va ilmiy munosabatning ahamiyati ortadi.

XULOSA

Sadri Ziyo hayoti va ma'naviy merosining falsafiy mazmun-mohiyatini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Sadri Ziyo merosini faqat tarixiy-biografik hodisa sifatida baholash yetarli emas. Uning faoliyati va merosida ilm, ma'rifat, axloq, inson kamoloti, tarixiy xotira va jamiyat taraqqiyoti kabi falsafiy masalalar o'zaro bog'langan.

Sadri Ziyo dunyoqarashining shakllanishida Buxoroning ko'p asrlilik ilmiy-ma'rifiy muhiti, Sharq musulmon tafakkuri va XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy o'zgarishlar muhim omil bo'lgan. Uning ma'naviy merosida ilm va ma'rifat inson hamda jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Bilimning haqiqiy qadri insonni axloqiy jihatdan yuksaltirishi va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishi bilan belgilanadi.

Sadri Ziyo merosida tarixiy xotira muhim ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Tarixni qayd etish va uni kelajak avlodga yetkazish xalqning o'zligini anglash va tarixiy tajribadan foydalanish imkonini beradi.

Sadri Ziyo merosini tadqiq etishda tarixiylik prinsipiga qat'iy rioya qilish zarur. Uni bugungi tushunchalar bilan sun'iy ravishda baholash emas, balki o'z davrining ijtimoiy-madaniy va falsafiy sharoiti doirasida tahlil qilish ilmiy jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Sadri Ziyoning ma'naviy merosi o'zbek falsafiy tafakkuri tarixini boyituvchi manbalardan biri sifatida qaralishi mumkin. Uning merosini falsafiy-antropologik, aksiologik, ijtimoiy-falsafiy va tarix falsafasi nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq qilish kelgusida alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlantirilishi mumkin.

Umuman olganda, Sadri Ziyo merosining falsafiy mazmun-mohiyati ilm va ma'rifat, axloq va mas'uliyat, tarixiy xotira va milliy o'zlik, shaxs va jamiyat munosabati kabi fundamental masalalarning o'zaro aloqadorligida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b. – B. 145. – ISBN 978-9943-28-982-6. – URL: <https://e-library.sammu.uz/uz/book/976>
2. Sadri Ziyo. Navodiri Ziyoiya / tojik tilidan tarjima, kirish va izohlar muallifi B. Aminov. – Toshkent: BAYOZ, 2017. – B. 5. – URL: <https://ijmmu.com/index.php/ijmmu/article/view/3358>
3. Sadri Ziyo. Navodiri Ziyoiya / tojik tilidan tarjima, kirish va izohlar muallifi B. Aminov. – Toshkent: BAYOZ, 2017. – B. 4. – URL: <https://ijmmu.com/index.php/ijmmu/article/view/3358>
4. Vohidov Sh., Erkinov A. Le fihrist (catalogue) de la bibliothèque de Şadr-i Ziyâ: une image de la vie intellectuelle dans le Mavarannahr (fin XIXe-début XXe siècle) // Cahiers d'Asie Centrale. – 1999. – № 7. – P. 141–173. – URL: <https://journals.openedition.org/asiecentrale/574>
5. Shakurii Bukhoroī M. Sadri Bukhoro. – 2-nashr, tuzatilgan, to'ldirilgan va qo'shimchalar bilan. – Dushanbe: Devashtich, 2005. – 329 b. – URL: <https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA86821751>